

---

## O'QUV-SEMINAR O'TKAZILDI



Qo'shtepa tumani Oila va xotin-qizlar bo'limi hamda "Mehrxon" ayollar va bolalarni qo'llab-quvvatlash markazi bilan hamkorlikda Qo'shtepa tumanidagi ijtimoiy himoyaga muhtoj, "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" hamda "Temir daftar"da turgan xotin-qizlarni jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish va ularning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida tanlab olingan 7 ta mahalla fuqarolar yig'inlarida "Qishloq ayollarining iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish" loyihasi doirasida amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan o'quv-seminar o'tkazildi.



O'quv seminarida Xo'jaqishloq, Do'rmon, Do'stlik, Qoraqushchi, Vatan, Qizilariq mahalla fuqarolar yig'inlaridagi mahalla faollari, yoshlar yetakchilari hamda tumandagi Aholi bandligiga ko'maklashish markazi, "Nogironlar" jamiyati, tijorat banklari, Yoshlari ishlari agentligining mas'ul xodimlari ishtirok etishdi.

[\*\*Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating\*\*](#)

[Facebook,](#)

2023-01-25 15:58:58